

MUAMMOLI MATNLARNING TURLARI VA LINGVISTIK TAHLIL USULLARI

O‘ralov Elyor Normanovich
Tadqiqotchi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muammoli matnlarning mavzuviy turlari, ularni lingvistik tahlil qilish usullari haqida mulohaza yuritilgan. Matnlarda muammoli tushunchalarning bevosita va bilvosita ifodalanishi va unda lingvistik birlıklarning namoyon bo‘lishi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: muammoli matn, lingvistik ekspertiza, bevosita tushuncha, bilvosita tushuncha, yashirin ma’no, o‘z ma’no.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются тематические типы проблемных текстов и методы их лингвистического анализа. Тексты отражают прямое и косвенное выражение проблемных понятий и проявление в них языковых единиц.

Ключевые слова: проблемный текст, лингвистическая экспертиза, прямое понимание, косвенное понимание, скрытый смысл, собственный смысл.

Jahon tilshunosligida muammoli, munozarali matnlar xususida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xusan, muammoli matnlarning lingvistik ekspertizasi xususida I.T.Vepreva, N.A.Kupina, A.N.Baranov, sud ekspertizasi uchun og‘zaki nutqqa xos haqorat belgilarini tahlil qilish borasida G.V.Kusov, yozma nutqqa aloqador muammoli matnlar ekspertizasi masalasida M.B.Voroshilova, M.V.Ablin kabi olimlar ilmiy izlanishlarni amalga oshirishgan¹. Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida muammoli, bahsli matnlarning lingvistik tahlili dolzarb ahamiyat kasb

¹ Вепрева И. Т., Купина Н. А. Экспертный лингвистический анализ спорного текста: учеб.-метод. пособие / М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2018. — 148 с.; Купина Н. А. Филологический анализ текста: учеб. пособие / Н. А. Купина, Н. А. Николина. М.: Академия, 2003.; Кусов Г. В. Анализ и диагностика признаков вербального оскорблении в судебной лингвистической экспертизе (типовая методика): монография / Г. В. Кусов. Краснодар: Изд. Дом «ЮГ», 2011.; Баранов А. Н. Лингвистическая экспертиза текста: монография / А. Н. Баранов. М. : Флинта, 2012.; Баранов, А. Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика [Текст] : учеб. пособие / А. Н. Баранов. — М.: Флинта: Наука, 2007. — 592 с.; Бринев К. И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза: монография / К. И. Бринев. Барнаул: АлтГПА, 2009.; Грачев М. А. Судебно-лингвистическая экспертиза: учебник / М. А. Грачев. М.: Флинта, 2016.; Аблин М. В. Теоретико-методологическое обоснование лингвистической экспертизы по делам об экстремизме [Текст]: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.19 — теория языка / Аблин М. В. — Уфа, 2005.

etmoqda. Zotan, jamiyatda muammoli matnlar faqatgina sud-huquq tizimi bilan aloqador predmet emas, balki ijtimoiy muhitning har bir tarmog‘i bilan bog‘liq masalalardandir. Masalan, reklama matnlari, tovar-mahsulot, tashkilot-korxona nomlarida aks etgan targ‘ibot-tashviqot va da’vatga aoqador birliklar, shuningdek, xorijiy tillarga aloqador semantik munosabatni ifodalovchi birliklarning tahlili; shuningdek, haqorat, tahdid, da’vat, mafkuraviy-g‘oyaviy tajovuzga qaratilgan matnlar; ijtimoiy tarmoqlarda aks etgan shaxsiy yozishmalar; hatto mumtoz adabiyotga aloqador bo‘lgan qo‘lyozmalar ham muammoli matn bo‘la oladi. Sababi qo‘lyozma matnlarning qaysi asr va ijodkorga tegishli ekanligi; nutqiy ko‘nikmalarning muallifini aniqlash va undagi muammoli leksik birliklarni tahlil qilish kabi masalalarning yechimiga oid ishlar lingvistik ekspertizaning muayyan obyekti bo‘la oladi.

Muammoli matn qay vaziyatlarda yuzaga kelishi mumkin:

- matndagi leksik birliklarni noaniq semantik talqin qilish natijasida yuzaga keladigan taassurot;
- axloqiy qoidalarga nomuvofiq tarzda ijobi etilgan jismoniy yoki yuridik shaxsni haqorat qilish, ma’naviy olami yoki obro‘siga zarar yetkazish, shon-sharafini kamsitish, qadr-qimmatni pasaytirish kabi masalalarga qaratilgan yozishmalar¹.

Bunday matnlar tahlilida tilshunos-ekspertning vazifasi nimadan iborat? Avvalo, matndagi leksik birliklarning semantik mohiyati o‘rganiladi. Umuman, matnda shaxs obro‘-e’tiboriga daxl qiladigan leksemalar mavjudmi? Matnning mohiyati ijobiy yoki salbiy xarakterga ega ekanligi aniqlanadi. Keyingi bosqichda esa tashkil etuvchi leksik birlik semantik-sintaktik jihatdan tahlil qilinadi. Matndagi fonetik va morfemik birliklar, tinish belgilari, so‘zlarning chastotasi, odatga aylangan so‘zlarning ifodasi va intonatsiyaning (agar ovozi xabar tarzidagi yozishma bo‘lsa) ahamiyati kabilar izchil tahlil etiladi.

Olim M.B.Voroshilova muammoli matnlar sirasiga quyidagilarni sanab o‘tadi²:

1. Qadr-qimmatni kamsitish – bu insonning o‘z-o‘zini hurmat qilish tuyg‘usiga qarshi harakat sanaladi. Ushbu masalada olim A.Anisimov shunday deydi: bu insonning ijtimoiy jihatdan qiymati bo‘lib, shaxsning aholi uchun qilayotgan xatti-harakatining jamiyat tomonidan baholanishidir.

2. Tuhmat – bu shon-sharafni kamsitish yoki obro‘-e’tiboriga putur yetkazish maqsadida qasddan rejalahtirilgan yolg‘on ma’lumotdir. Bunday mazmundagi

¹ Вепрева И. Т., Купина Н. А. Экспертный лингвистический анализ спорного текста : учеб.-метод. пособие / М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. — Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2018. — 22 с.

² Ворошилова М. Б. Лингвистическая экспертиза [Текст] : задачник : учеб. пособие. В 2 ч. Ч 1. Экспертиза конфликтного текста / М. Б. Ворошилова ; ФГБОУ ВО «Урал. гос. пед. ун-т». — Екатеринбург, 2016. — 220 с.

matnlar yuridik shaxs yoki tashkilotlar, ahamiyatga ega shaxslar o‘rtasida amalga oshirilishi mumkin.

3. Da’vat – jamiyat farovonligiga xilof tarzda amalga oshirilgan chaqiriq. Bu, odatda, mafkuraviy va g‘oyaviy hujumlar tarzida amalga oshiriladi. Va, ko‘proq, mafkuraviy bo‘shliq yuzaga kelgan o‘rinlarda bunday muammoli yozishmalar maqsadli ravishda yakun topadi.

4. Taklif – taraqqiyot va istiqbolga qarshi ravishda tuzilgan reja. Odatda, bunday matnlar salbiy xarakterga ega bo‘ladi hamda undagi muammoli tushuncha bu ma’lum bir tuzum yoki mafkuraga qarama-qarshi fikrni ilgari surilganidadir.

5. Targ‘ibot – ma’lum ijtimoiy-siyosiy maqsadda shakllantirilgan va ijro etilgan harakat. Ushbu mavzudagi matnlar mazmuni ham salbiy ahamiyat kasb etadi. Uning salbiy mazmun kasb etishi muayyan siyosiy tuzum, vaziyat, urf-odatga zid tarzidagi g‘oyalarni xalq onggiga singdirish, ularni yot mafkura ortidan ergashtirishdir.

6. Haqorat – jismoniy va yuridik shaxsning sha’ni va qadr-qimmati, ijtimoiy mavqeiga ta’sir o‘tkazish harakati. Bunday mazmundagi matnlar insoniy qadriyatlar, odob-axloqqa qarshi tarzda amalga oshiriladi.

Yuqoridagi mavzular ijobiy va salbiy vazifaga ega. Shu mavzulardagi matnlar insoniyat, jamiyatning belgilangan me’yorlariga qarshi ravishda qo‘llansagina ular sud-huquq tizimi chun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Muammoli matn tushunchasi ostida aynan biror siyosiy va ijtimoiy vaziyat yoki shaxsga qarshi amalga oshirilgan yozma hamda og‘zaki nutqqa nisbatan aytildi. Demak, hamma matnlar ham muammoli va munozarali bo‘la olmaydi. Ularning bunday nomlanishi muayyan tuzumga qarshi harakat sifatida shakllanganiga bog‘liqdir. Muammoli matnlarning huquqiy jihatdan taftish qilinishi nutq bilan aloqador jioyatlarning yechimiga sabab bo‘ladi. Nutqiy jinoyat – shaxs yoki jamiyatning odatdagi tuzumiga qarshi chiqish. Bunda so‘z asosiy qurol vazifasini o‘taydi. Ma’lumki, so‘z muayyan semaga ega va u turli vaziyatda turlicha semada namoyon bo‘ladi. Insoniyat, yuridik shaxs manfaatlari, obro‘-e’tiboriga qarshi ishlatilgan so‘zlardan iborat yozishma esa muammoli, munozarali, konfliktli matn sanaladi. Bunday yozishmalar ham og‘zaki, ham yozma shaklda bo‘lishi mumkin. Og‘zaki shakldagi muammoli yozishma audio yozishmalar bo‘lib, ularga video murojaatlar ham kiradi. Munozarali matnni lingvistik tahlil qilish jarayonida ekspert asosiy qoidalar va xulosalarning ishonchlilagini ta’minlaydigan uslubiy prinsiplarga asoslanadi. Ushbu prinsiplar til, nutq, nutq aloqasi, matn va til birliklarni tizimli talqin qilishda fundamental lingvistik bilimlar doirasida ishlab chiqilgan yondashuvlarni o‘zida aks ettiradi. Yuqoridagi mavzularga aloqador muammoli yozishmalar maqsadli ravishda amalga oshirilsa, sud-huquq tizimi tomonidan nazoratga olinadi hamda lingvistik jihatdan tahlilga tortiladi. Zotan, bunday matnlardagi g‘oyaviy-ma’naviy ta’sirlar jismoniy va yuridik shaxsning obro‘-e’tibori,

taraqqiyoti va hatto, ishchanlik salohiyatiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazishi mumkin. Bunda tilshunosdan talab etiladigan jihat – matnlardagi nutq birliklarini lingvistik tahlil qilish, ularning axborot tashish vazifasini aniqlash va insoniyatga ma’naviy ta’sir kuchini belgilashdan iboratdir. Demak, tilshunos matnlardagi harakat yo‘nalishlarini aniqlaydi. Matnning mazmuniy jihat shaxs, jamiyatgagina emas, balki millatlaro, davlatlararo tafovutlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois ham, matnning mazmuniy harakat yo‘nalishi aniqlab olish muhim masala sanaladi. Diniy, milliy, irqiy munosabatlarga ta’sir o‘tkazuvchi matnlar munozarali obyektlar sirasiga kiradi. Bu ko‘lami jihatdan boshqa turlariga nisbatan katta jinoyat turi sanaladi. Zero, bunda jabrlanuvchi butun boshli davlat, irq, millat bo‘lishi mumkin. Odatda, irqiy, milliy adovatni qo‘zg‘ashga undaydigan chaqiriqlar mavjud bo‘lib, ulatr ham shaklan yozma va og‘zaki ko‘rinishda bo‘ladi. Bu masalada A.Baranov shunday deydi: Chaqiriq – bu “adresatga qaratilgan, muayyan maqsadga erishishga yordam beradigan, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatning muhim qismidir. Bunda biror bir harakat yoki harakatlar majmuini amalga oshirishga undovchi, adresatning kundalik xulq-atvorida ushbu maqsadlarni hisobga olishiga undovchi nutq, bunda so‘zlovchi va adresat siyosiy subyektlar yoki ularning vakillari hisoblanadi, nutq aktining o‘ziga esa ijtimoiy-siyosiy muloqotning bir qismi sifatida qaraladi”¹. Demak, muayyan chaqiriqlar muammoli matn bo‘la oladi. Bundan ko‘zlangan maqsadga erishishda jabrlanuvchilar sirasini jamoa, guruh, omma, xalq tashkil etadi. Odatda, chaqiriq muayyan shaxs emas, balki jamoaga nisbatan amalga oshiriladi.

Muammoli matnlar shakllanishining o‘ziga xos lingvistik usullari mavjud. Matnni tahlil qilishda bevosa va bilvosita ifodalangan munozarali tushunchalarini aniqlash mumkin. Har qanday matndagi ma’lumotlar bir necha usulda (bir necha shakllarda) ifodalanishi mumkin:

1. Ochiq og‘zaki (verbal) shakl, bunda ma’lumotlar ochiqchasiga bayonot yoki o‘zaro bog‘liq bo‘lgan gaplar zanjiri shaklida beriladi. Bunda matnning mazmuni so‘zlarning ramziy bo‘yoqlar, tag ma’nolar, ko‘chimlarsiz tarzda bosh ma’noda ifoda etilishida namoyon bo‘ladi va matnda aks etuvchi yangi ma’lumot bayonotning predikativ qismida ifodalanadi (predikat, mantiqiy predikat hisoblanadi). Masalan: (**O‘g‘ri o‘g‘ridan tayoq o‘g‘riladi**).

2. Yashirin verbal shakl, bunda ma’lumotlar og‘zaki tarzda ifodalangan, lekin yashirin, ko‘zga tashlanmaydigan va harakatni bajaruvchi shaxs sifatida allaqachon ma’lum bo‘lgan tshunchaga nisbatan beriladi. Misol uchun, yuqoridagi misolda nafaqat tayoq o‘g‘rili haqidagi ma’lumot bor, balki uni qilgan shaxs **o‘g‘ri** ekanligi haqida ham tushuncha mavjud.

¹ Баранов А. Н. Лингвистическая экспертиза текста. М.: Флинта-Наука, 2007. С. 420.

3. Presuppositiv (matn orti) shakl, bunda voqeaning ayrim jihatlari, masalan, voqeal sodir bo‘lgan vaqt, joy, vaziyat haqidagi ma’lumotlar matnda bevosita ifodalanmagan bo‘ladi va uni so‘zlovchi (yozuvchi) ham, tinglovchi (o‘quvchi) ham his qilib turadi.

4. Tub ma’no matn shakli, bunda ma’lumot matnning o‘zida mavjud emas, lekin o‘quvchi yoki tinglovchi tomonidan matn mazmunidan osongina “chiqarib olinadi”. Bu yerda turli xil usullardan foydalanish mumkin. Masalan, o‘quvchiga savol beriladi: Qiziq, bu tasodifmi yoki yo‘q? Bu savol oddiy tuyulishi mumkin, aslida esa bu yashirin bayonotni aniqlash usulidir. Agar: albatta, bu tasodif emas!, javobiga ega bo‘linsa, demak, matn muayyan bir tag ma’noni o‘zida mujassam etgan sanaladi¹.

Xulosa qilib aytish mumkinki, lingvistik ekspertiza jarayonida matn yoki alohida lingvistik birliklar tomonidan har qanday shaklda uzatiladigan ma’lumotlar tahlil qilinadi. Aynan muammoli matnlarning tahlili ulardagi mavzuviy harakat yo‘nalishi hamda muayyan nutq birliklaridagi muammoli semalarni aniqlashdan iboratdir. Muammoli matnlar turli mavzularda: da’vat, tahdid, chaqiriq, taklif, iltimos, tahdid kabilarda bo‘lsih bilan bir qatorda ularning o‘ziga xos ifoda shakli ham mavjud. Munozarali tushunchalar yozishmalarda ochiqdan-ochiq, yashirin, presuppositiv va tub ma’no ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi.

Muammoli matnlarning yuzaga kelishida munozarali tushunchalarning ifodalanishida ham turlicha shakllar mavjud. Masalan, chaqiriq mazmunidagi matnlarda bevosita va bilvosita mazmunning namoyon bo‘lishi tahlilga tortilganda to‘g‘ridan-to‘g‘ri chaqiriqlar bayonotni tashkil etuvchi so‘zlarning o‘z ma’nosи, chaqiriqning doimiy, odatdagи til belgilaridan foydalanish orqali ifodalanadi. Ular adresatdan shunchaki bayonotning ma’nosini tushunishni talab qiladi. Ammo bilvosita ifodalangan chaqiriqlar adresatdan bayonotning yashirin ma’nosini tafakkur qilib qayta qurishni, ya’ni ma’lum bir aqliy analiz-sintez jarayonlarini amalga oshirishni talab qiladi. Quyida bevosita chaqiriqni amalga oshirish shakllari ajratildi:

- Undovning muqobil grammatik shakllari – ikkinchi shaxs birlik yoki ko‘plik buyruq mayli: Yugur! O‘qing! Chizing! Homid, qo‘rqma! Hukumat, ish ber!
- birinchi shaxs ko‘plikda qo‘llanilgan;
- imperativ, bunda chaqiriq jamoaviy harakatni nazarda tutadi: Amerikaga yetib olaylik va quvib o‘taylik! Moskvani namunali kommunistik shaharga aylantiraylik!

¹ Цена слова: Из практики лингвистических экспертиз текстов СМИ в судебных процессах по защите чести, достоинства и деловой репутации. Под ред. проф. М. В. Горбаневского - 3-е изд., испр. и доп. М.: Галерия, 2002. С. 332.

• birinchi shaxs ko‘plik ikkinchi shaxs birlik va ko‘plik shakllarida qo‘llaniluvchi bo‘lmoq ko‘makchi fe’li: Keling, inson bo‘laylik! Saxiy bo‘laylik! Xushmuomala bo‘ling! Qasamingizga sodiq bo‘ling! Ehtiyot bo‘ling!

• Chaqirmoq fe’li – chaqiriqning eksplitsit performativ formulasi: Biz hammani maydonga kelishga chaqiramiz! Men sizni xotirjamlikka chaqiraman!

• Bering! kel, keling fe’llari;

• Yo‘qolsin! shakli;

• Bo‘lsin (Hurlik bo‘lsin), chiqing (Shahardan chiqing!), ha (Hamdo‘stlikka – ha!) so‘zları;

• Nominalizatsiyalar (vaziyatlarning semantik burilishlari): Muvaqqat hukumatni qo‘llab-quvvatlash yo‘q! Qo‘llab-quvvatlash so‘zi “kimdir kimnidir qo‘llab-quvvatlaydi” vaziyatining nominalizatsiyasidir.

• Nominalizatsiya xususiyatini oluvchi otlar: O‘lim – Nemis bosqinchilariga o‘lim! Yahudiylarga o‘lim!

• -ga qo‘shimchasiga ega iboralar: Raqsga! Dam olishga! Qurolga! To‘sinqqa! Javobga! Yelsin to‘dasini sudga! Bu misollarda otlar nominalizatsiya emas, lekin semantik burilishlardir, masalan, qurol – “kimdir qurol olib, kimgadir qarshi ishlatadi” konstruksiyasining semantik burilishi mavjud.

• Imperativ intonatsiya bilan birlashgan infinitiv gaplar: orqaga chekinilmasin! Qo‘rqilmasin!

• Nominal undov gaplar: Raqs va tomoshalar! Ishq bandalariga ozodlik!

• Inkor yuklamasi imperativ intonatsiya bilan qo‘shilganda: Qo‘llab-quvvatlamaysizmi jamoani! Qo‘llab-quvvatlang ma’nosida; Tinchlanmaysizmi, axir! Tinchlaning ma’nosida;

• Zarur, kerak kabi majburiyat semantikaga ega modal fe’llarni qo‘llash: “Ziyolilarga yo‘l bering!” ma’nosidagi ziyolilarga yo‘l berish kerak!, “O‘tishda ehtiyot bo‘ling” ma’nosida o‘tishda e’tibor kerak!

Demak, munozarali tushunchalar yozishmalarda ochiqdan-ochiq, yashirin, presuppozitiv va tub ma’no ko‘rinishlarida namoyon bo‘lishi mumkin. Yuqoridagi misollar chaqiriq tushunchasining ochiqdan ochiq, bevosita voqelanishini yuzaga keltirmoqda. Chaqiriq mazmunidagi matnlarda yuqoridagidek lingvistik birliklarning ishtiropi mohiyatning munozarali, muammoli ahamiyatini oshiradi. Ular bevosita, to‘g‘ridan to‘g‘ri matnda aks etadi. Matndagi so‘z, jumla, grammatik shakllarning lingvistik xususiyatlari aniqlanishi bilanoq ushbu yozishmalar mazmunidagi harakat yo‘nalishini belgilab olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Вепрева И. Т., Купина Н. А. Экспертный лингвистический анализ спорного текста: учеб.-метод. пособие / М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2018. — 148 с.
2. Купина Н. А. Филологический анализ текста: учеб. пособие / Н. А. Купина, Н. А. Николина. М.: Академия, 2003.
3. Кусов Г. В. Анализ и диагностика признаков вербального оскорблении в судебной лингвистической экспертизе (типовая методика): монография / Г. В. Кусов. Краснодар: Изд. Дом «Юг», 2011.
4. Баранов А. Н. Лингвистическая экспертиза текста: монография / А. Н. Баранов. М. : Флинта, 2012.; Баранов, А. Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика [Текст] : учеб. пособие / А. Н. Баранов. — М.: Флинта: Наука, 2007. — 592 с.
5. Бринев К. И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза: монография / К. И. Бринев. Барнаул: АлтГПА, 2009.
6. Грачев М. А. Судебно-лингвистическая экспертиза: учебник / М. А. Грачев. М.: Флинта, 2016.
7. Аблин М. В. Теоретико-методологическое обоснование лингвистической экспертизы по делам об экстремизме [Текст]: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.19 — теория языка / Аблин М. В. — Уфа, 2005.
8. Вепрева И. Т., Купина Н. А. Экспертный лингвистический анализ спорного текста : учеб.-метод. пособие / М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. — Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2018. — 22 с.